Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

LISON UT-TAYR DOSTONI LIII BOBI NASRIY BAYONLARINING QIYOSIY TAHLILI

Oliya O'ktam qizi Qodirova*
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistranti
✉ oliyaqodirova33@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"dostoni LIII bobidagi "Muqbil va Mudbir" hikoyati misolida 2005 va 2022-yillarda nashr etilgan nasriy bayonlar qiyosiy tahlil qilinadi. Asliyat matni bilan nasriy bayonlar o'zaro taqqoslanib, tarjima va tabdil jarayonida yuzaga kelgan leksik, semantik hamda uslubiy farqlar aniqlanadi. Shuningdek, ayrim tasavvufiy tushunchalarning turli nashrlarda qay darajada to'g'ri ifodalangani baholanadi.

Kalit so'zlar

Lison ut-tayr, Alisher Navoiy, Muqbil va Mudbir, nasriy bayon, qiyosiy tahlil, matnshunoslik, tabdil, tasavvuf, leksik-semantik xususiyat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743479

Kirish

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni o'zbek mumtoz adabiyotining yirik tasavvufiy-falsafiy asarlaridan biri hisoblanadi. "Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni mutaxassis adabiyotshunos, faylasuf va teologlar uchun ham, keng kitobxonlar ommasi uchun ham o'rganishbop va o'qishbop asardir. Undan har bir kishi o'z ma'naviy kamoloti darajasida o'zi uchun va ilm uchun tegishli muhim ma'lumotlarni, hayotiy dasturlarni topa oladilar degan umidimiz bor". [3,B.15]

Ushbu asar mazmunining keng kitobxonlar ommasiga yetib borishida nasriy bayonlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Turli yillarda yaratilgan nasriy bayonlarda asliyat mazmunini sodda va tushunarli tarzda ifodalashga intilish kuzatiladi. Biroq tabdil jarayonida ayrim so'z, ibora va tasavvufiy istilohlarning talqinida muayyan farqlar yuzaga keladi. Shu bois "Lison ut-tayr"ning turli nasriy bayonlarini asliyat bilan qiyoslash matnshunoslik nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada LIII bobdagi "Muqbil va Mudbir" hikoyati misolida 2005 va 2022-yilgi nasriy bayonlar o'zaro hamda asliyat bilan taqqoslanadi.

LIII bob 1-bayt:

Quyida "Muqbil va Mudbir" hikoyati tasvirlangan bu bobda keltirilgan nasriy bayonlar orasidagi farqlar.

Asliyatda:

رفیق، ایکی آرا یول بیر توشتیلار
طریق صاحبِ بیری یولسیز، ایدی بیری. [4,B.49]

Tushtilar bir yo'l aro ikki rafiq,
Biri edi yo'lsiz, biri sohib tariq.

rafiq (رفیق) — do'st, hamroh
yo'lsiz (یولسیز) — yo'lni bilmaydigan, adashgan
sohibtariq (طریق صاحبِ) — to'g'ri yo'l egasi, yo'lni biluvchi

Ya'ni:

Bir yo‘lda ikki do‘st uchradi: biri yo‘lni bilmas(ya’ni tariqat ilmini bilmas, johil), biri esa to‘g‘ri yo‘l (tariqat ilmi) egasi edi.

Bu bayt juda sodda ko‘rinsa ham, uning zamirida chuqur botiniy ma’no bor. Odatda Alisher Navoiy insonlarni ikki toifaga ajratib ko‘rsatadi – bu yerda ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin.

Bu ikki “rafiq” aslida shunchaki yo‘ldagi odamlar emas, balki hayotdagi ramzlar:

yo‘lsiz – maqsadsiz, bilim va hidoyatdan yiroq inson;

sohibtariq – to‘g‘ri yo‘lni bilgan, tajribali va ma’rifatli kishi.

Bayt shuni eslatadi: inson hayot yo‘lida yolg‘iz emas – u doimo kim bilandir yonma-yon yuradi. Ammo hayotda, hayot yo‘lida kimga ergashish juda ham muhim. Agar yo‘lsiz kishiga ergashsa, adashadi; agar sohibi tariqqa ergashsa, ko‘zlagan manzilga albatta yetadi. Ya’ni, bu bayt aslida to‘g‘ri ustoz, to‘g‘ri yo‘l tanlash g‘oyasini ilgari suradi.

2005-yildagi nasriy bayonda:

“Bir yo‘l aro ikki o‘rtoq ketib borardi. Ulardan biri yo‘lsiz, ikkinchisi esa tariqat bilimdoni edi”. [1,B.319]

2022-yildagi nasriy bayonda:

“Yo‘lda ikki o‘rtoq ketib borardi. Ulardan biri g‘ofilu nodon, ikkinchisi esa tariqat bilimdoni edi”. [2,B.59]

LIII bob 4-5-bayt:

Asliyatda:

اَهلِاللهدین، اَردی ایتور مُقبِل
آگاهدین و کامل خَیلی دیندا.
سوز، مُدبِرغه ایدی نقصاندین اهلِ
سوز کافِرغه وصفیدین بُت اویلکیم. [4,B.50]

Muqbil aytur erdi ahlillohdin,
Dinda xayli komilu ogohdin.
Ahli nuqsondin edi Mudbirg‘a so‘z,
O‘ylakim but vasfidin kofirg‘a so‘z.

ahli nuqson (نقصان اهلِ) — kamchilikli, nuqsonli kishilar
so‘z (سوز) — gap, nasihat
o‘ylakim — xuddi shundayki, go‘yo
but (بُت) — sanam, sig‘iniladigan haykal
vasf (وصف) — ta’rif, maqtov
*kofir (*كافر) — ishonmagan, inkor etuvchi kishi
muqbil (مُقبِل) — yuz tutgan, to‘g‘ri yo‘lga kirgan kishi
ahlilloh (اَهلِالله) — Alloh yo‘lidagi, solih, ma’rifatli insonlar
din (دین) — e’tiqod, islom yo‘li
xayl (خَیل) — guruh, toifa
komil (کامل) — yetuk, barkamol
ogoh (آگاه) — xabardor, anglagan, hushyor

Muqbil (to‘g‘ri yo‘lga kirgan kishi) Alloh ahli — dinning yetuk va ogoh insonlaridan so‘zlar edi. Mudbir butlarni maqtagan kofirlardek aqli nuqsonli kishining gaplarini so‘zlardir.

Bu baytda to‘g‘ri yo‘lni tanlagan inson kimdan ilm va nasihat olishi kerakligi ko‘rsatiladi. Ya’ni, haq yo‘lga kirgan odam komil va ogoh zotlarga ergashadi. Bu esa oldingi baytga qarama-qarshi qo‘yilgan: kim noto‘g‘ri bo‘lsa — noto‘g‘ridan oladi, kim to‘g‘ri bo‘lsa — to‘g‘ridan o‘rganadi.

2005-yildagi nasriy bayonda:

“Muqbil ***iloh ahllari*** haqida, dindagi komil va ogoh kishilar to‘g‘risida so‘z aytsa, Mudbir esa butni vasf etuvchi kofirlarga o‘xshab faqat nuqson ahli haqida so‘z yuritardi”. [1,B.319]

2022-yildagi nasriy bayonda:

“Muqbil ***iymoni butun zotlar*** haqida, dindagi komil va ogoh taqvodorlar to‘g‘risida so‘z aytsa, Mudbir butni vasf etuvchi kofirlarga o‘xshab faqat aqli noqis kimsalar haqida safsata sotardi”. [2,B.60]

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2005-yilgi nasriy bayon asliyat matniga nisbatan yaqinroq bo‘lib, undagi tasavvufiy istilohlar imkon qadar saqlab qolingan. 2022-yilgi nasriy bayonda esa zamonaviy kitobxon uchun tushunarli bo‘lishi maqsadida ayrim iboralar erkinroq talqin qilingan. Jumladan, **“yo‘lsiz**” so‘zining **“g‘ofil va nodon”**, **“ahlilloh**”ning “**iymoni butun zotlar”, “ahli nuqson**”ning “**aqli noqis kimsalar**” tarzida berilishi mazmunni soddalashtirgan bo‘lsa-da, ayrim tasavvufiy ma'no nozikliklarining susayishiga sabab bo‘lgan. Demak, har ikki nasriy bayon asarning mazmunini yetkazishda muhim o‘rin tutadi, biroq matnshunoslik nuqtai nazaridan asliyatdagi badiiy va tasavvufiy qatlamlarni to‘liq anglash uchun asl matnga tayanish zarur. Bunday qiyosiy tadqiqotlar “Lison ut-tayr” matnining ilmiy tadqiqi va mukammal nashrlarini tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasriy bayon muallifi Sharafiddin Sharipov.Lison ut-tayr.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent: 2005.B-319
2. Lison ut-tayr”. So‘zboshi, tabdilva izohlar muallifi Manzar Abdulxayr, Abduhamid Pardayev.— T.:Yoshlar nashriyoti. Toshkent: 2022.B-27
3. Vahob Rahmonov.“Lison ut-tayr”,Toshkent,G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi,1991. B. 462
4. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Илмий-танқидий текст / Нашрга тайёрловчи: Ш. Эшонхўжаев. – Тошкент: Фан, 1965. – 230 б.